

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SEYTNIYAZOVA GULJAXAN MIRZAG‘ALIYEVNA

**ZAMONAVIY QORAQALPOQ SHOIRLARI ASARLARI O‘ZBEKCHA
VA INGLIZCHA BADIY TARJIMALARIDA MUTARJIM MAHORATI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
(filologiya fanlari)**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Philological sciences**

Seytniyazova Guljaxan Mirzag‘aliyevna

Zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha badiiy
tarjimalarida mutarjim mahorati 3

Сейтниязова Гулжахан Мырзагалиевна

Переводческое мастерство в художественных переводах произведений
современных каракалпакских поэтов на узбекский и английский
языки 25

Seytniyazova Guljakhan Mirzagaliyevna

The translator’s mastery in the artistic translations of modern Karakalpak
poets’ works into Uzbek and English..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 56

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SEYTNIYAZOVA GULJAXAN MIRZAG‘ALIYEVNA

**ZAMONAVIY QORAQALPOQ SHOIRLARI ASARLARI O‘ZBEKCHA
VA INGLIZCHA BADIY TARJIMALARIDA MUTARJIM MAHORATI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
(filologiya fanlari)**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi O‘liy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2984 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gayliyeva Ogulbay Kurbanmuradovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Kazaxbaev Sarsen Seilbekovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Abidova Roxatoy Xudayberganovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

A.Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2025-yil “_____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ dagi “_____” - raqamli reestr bayonnomasi).

K.K. Orazimbetov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

J.O. Tanirbergenov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Z.U. Bekbergenova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi nazariyasi hamda estetikasi takomilida badiiy tarjima, tarjima nazariyasi va amaliyoti, badiiy tarjima adabiy aloqalar tagmatnida tutgan vositachilik roli hamda vazifaviy o‘rniga hamisha jiddiy e‘tibor qaratilgan. Binobarin, badiiy tarjima vosita-usullarini aniqlash, muammo amaliy ishlanganlik darajasini belgilash, ijodkor poetik mahorati hamda tarjimon ifoda uslubini murakkab bog‘lanish muqoyasasida o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, badiiy tarjima tamoyillari, asar asliyatini ikkinchi tilda qayta tiklash jarayonida mutarjim iqtidorini chamalash, uning matn originaliga o‘ziga xos yondashuvini kompleks ravishda tekshirish muayyan ma’noda ilmiy ehtiyojlarni hosil qiladi.

Dunyo adabiyotida har bir xalq madaniyati, tarixi, an‘analari, turmush tarzi hamda qadriyatlariga munosabat badiiy asar vositachiligida namoyon bo‘ladi, milliy o‘lcham va umuminsoniy mohiyat reallashuvi tarjima hamda adabiy aloqalar tajribasiga payvandlanadi. Tillararo genetik va kontakt hamkorlikni yanada mustahkamlash aslida badiiy tizim taraqqiyotini kafolatlaydi, vaholanki, badiiy tarjima adabiy aloqalar maxsus shakli sifatida o‘zaro manfaatdorlikni kun tartibiga chiqaradi. Badiiy tarjima yo‘nalishi yuksak san‘at turi sanaladi, u insonga matnni ona tilida o‘qishga imkon yaratadi. Asar tarjimasini muvaffaqiyati mutarjim poetik mahoratiga bog‘liq, ijodiy faoliyat murakkabligini taqozolaydigan jarayon ifoda uslubini yaxlit ravishda kitobxon shuuri-tasavvuriga ko‘chirishga xizmat qiladi.

Milliy istiqloq davrida mamlakatimizda ilm-fan, madaniyat hamda san‘atga munosabat tubdan yangilandi, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilayotgan kitob mutolaasi malakasini shakllantirish va mustahkamlash bo‘yicha izchil amalga oshirilayotgan islohotlar badiiy adabiyot g‘oyaviy yo‘nalishi, mavzu-mundariyasi, falsafiy-intellektual salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Jahon hamjamiyatida global keskinlik teranlashayotgan “hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turganligi”¹ badiiy adabiyot, shu jumladan, tarjima san‘ati ijtimoiy mohiyatini qadriyatlar tizimiga yo‘naltiradi, binobarin, adabiyotlararo madaniy hamkorlik aloqalarini taraqqiyot omili sifatida belgilash, badiiy tarjima va uning milliy adabiyotlar mushtarakligini ta’minlashdagi o‘rni, ijodiy ta’sir hamda tipologik tizimni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar ko‘lami shu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ham ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Joriy kunda badiiy asar tarjimasini zamonaviy andozalar asnosida isloh etish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, matn asliyatini o‘ziga tilda qayta tiklash jarayonida malakali mutaxassislar iqtidorini turkiyzabon hamda jahon badiiy tizimi

¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 47.

kontekstiga yo'naltirish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, qardosh xalqlar o'rtasida mavjud madaniy-ma'rifiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik rishtalari o'zaro ishonch hamda do'stona munosabatlarni qaror toptiradi. Shunday ekan, adabiy aloqalar kompleksi muhim halqasi – badiiy tarjima, mutarjim mahorati, o'zga tillardan o'girish tamoyillarini qiyosiy-tarixiy aspektda o'rganish adabiyotshunoslikning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari, shuningdek, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida" 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son qarori, 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-aprelda PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsion ish respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida badiiy tarjima yo'nalishida boy ilmiy-tadqiqot tajribasi mavjud, ayniqsa, tarjima tarixi, nazariyasi, uning milliy madaniyat takomilida tutgan o'rni, mutarjim poetik mahorati, tillararo tarjimada amal qilish joiz estetik tamoyillar, tarjima san'ati o'ziga xosligi, matn asliyatini boshqa tillarda qayta

tiklash jarayoni bilan bog‘liq muammolar u yoki bu ilmiy aspektlar kesimida muayyan darajada o‘rganilgan².

² Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation / Ed. ItA. Brower. – Cambridge (Mass.), 1959; Ревзин И.И., Розенцвейг В.Ю. Основы общего и машинного перевода. – М., 1964; Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. – М., 1973; Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – London, 1965; Бархударов Л.С. Язык и перевод. – М., 1975; Латышев Л.К., Семенов А.Л. Перевод: теория, практика и методика преподавания: Учеб. пособие для студ. перевод. фак. высш. учеб. заведений. – М., 2003. С. 116–151; Komissarov V.N., Korolava A.L. A Manual of Translation from English into Russian. – М., 1990; Neubert A. Text and Translation. – Leipzig, 1985; Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод. – М., 1980; Последовательный перевод. – М., 1969; Чернов Г.В. Теория и практика синхронного перевода. – М., 1978; Ширяев А.Ф. Синхронный перевод. – М., 1979; Seleskavitch D. Zur Theorie des Dolmetschens // Übersetzer und Dolmetscher / Hrsg. V. Kapp. – Heidelberg, 1974; Interpretation. A Psychological Approach to Translation // Translation / Ed. R. Brislin. – N.Y., 1976; Стрелковский Г.М., Латышев Л.К. Научно-технический перевод. – М., 1980; Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык: Дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1958. – 184 с.; Горбунова В.С., С.В. Сботова, Е.Ю. Куляева. Основы теории перевода. – Пенза: ПГУАС, 2014. – 128 с.; Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод. – М.: Воениздат, 1980. – Б. 124-129; Шарипов Ж. Русчадан ўзбекчага шеърлий таржиманинг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1959. – 154 б.; О‘sha muallif. Бадий таржималар ва мохир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972. – 258 б.; Мусаев Қ. Бадий таржима ва нутқ маданияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 159 б.; Пулатов Ю. Бадий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – 66 б.; Каримов М. Қозоқ, қирғиз тилларидан ўзбекчага таржиманинг айрим масалалари: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1974. – 180 б.; Эгамова Я. Асл нусхадаги қахрамонлар образини бадий таржимада қайта яратиш масаласи: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1974. – 202 б.; Таржима санъати. – Тошкент: 1961. – 160 б.; Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 304 б.; Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976; Таржима санъати. 3-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – 311 б.; Таржима санъати. 4-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 327 б.; Таржима санъати. 5-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 304 б.; Таржима санъати. 6-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – 263 б.; Бадий таржиманинг актуал масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 227 б.; Таржимон маҳорати. – Тошкент: Фан, 1979. – 195 б.; Жўраев К. Таржима санъати. – Тошкент: Фан, 1982. – 60 б.; Саломов Ф. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 190 б.; О‘sha muallif. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 232 б.; Ўзбекистонда бадий таржима тараққиёти (таржима тарихидан лавҳалар). – Тошкент: Фан, 1986. – 205 б.; Ўзбекистонда таржимачилик. – Тошкент: Фан, 1988. – 227 б.; Исомиддинов З. Яқин туркий тиллардан шеърлий таржима хусусиятлари (“Манас” эпоси таржимаси мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1991. – 191 б.; Жавбўриев М. Бадий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш (О.Ёкубов “Улуғбек хазинаси” тарихий романининг немисча таржимаси мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1991. – 153 б.; Очилов Э. Рубойий таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1994. – 134 б.; Мирзокулов С. Қариндош тиллардан таржима асарларнинг лексик-семантик тадқиқи (Т.Қосимбековнинг “Синган қилич” романи таржимаси асосида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2000. – 155 б.; Яркинова Б. Туркий тиллардан таржимада тарихий колоритнинг акс эттирилиши (Қирғиз адиби Т.Қосимбековнинг “Синган қилич” романи таржимаси мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2002. – 25 б.; Дильманов И. Қардош тиллардан эпос таржимасида миллий ўзига хосликнинг қайта талқини: (“Шаҳриёр” ва “Маспошша” дostonларининг ўзбекча таржималари асосида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2005. – 150 б.; Сирождидинов Ш., Одилова Г. Таржима назариясининг асослари. Монография. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011; Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2012. – 124 б.; О‘sha muallif. Бадий таржима масалалари. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2014. – 176 б.; О‘sha muallif. Таржима назарияси. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2014. – 140 б.; О‘sha muallif. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2014. – 264 б.; Тухтаходжаева Н. Бадий таржимада лингвокультуранемаларнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан ва технология, 2013. – 132 б.; Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. Монография. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2019; Жўраев К. ва бошқ. Таржимашунослик. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 320 б.; Салимова Д. Шеърлий таржимада бадий ният ва поэтик маҳоратнинг қайта ифодаланиши: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. автореф. – Тошкент, 2018. – 158 б.; Giray E. Özbek yazar Pırmkul Kadırov un romancılıđı. – Türkiye: Atvin 2018; Сапаева Ф. Махтумкули шеърлари ўзбекча таржималарининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. автореф. – Тошкент, 2018. – 50 б.; Бекбергенова М.Д. Көркем әдебият ҳам типологиялық байланыс. (Synergy: journal of ethics and governance. February-2023); Көркем аўдарма теориясы (оқыў қолланба). – Нөкис, 2005, Қарақалпақ әдебиятында дәстүр, мийраслылық ҳам көркем аўдарманың айрым мәселелери. – Нөкис: Билим, 2004; Рзаева Р.К. Вопросы художественного перевода. (лирика каракалпакского поэта И. Юсупова). (учебно-методическое пособие по каракалпакской литературе для учащихся общеобразовательных школ, колледжей, академлицеев и студентов вузов). – Нукус, 2015.

Shunga qaramasdan, badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotida zamonaviy qoraqalpoq shoirlari ijodini qardosh hamda boshqa oilaga mansub tillar, xususan, Yevropa tillariga o‘g‘irish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Taqdim etilayotgan tadqiqotda hozirgi qoraqalpoq shoirlari ijodini o‘zbek va ingliz tillariga tarjima qilish tamoyillari qiyosiy-tipologik sathda nazariy umumlashtiriladi, joriy holat tanlangan tadqiqot mavzusi dolzarbligini ta‘minlash vazifasini ham bajaradi.

Dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti istiqbol ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq “Turkiy adabiyotning rivojlanish tendensiyalari”, “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzularidagi tadqiqot yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy qoraqalpoq shoirlari poetik asarlari o‘zbekcha va qoraqalpoqcha badiiy tarjimalari manzarasini tipologik talqin etish hamda tarjimon individual mahorati qirralarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

jahon va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida tarjima shakllari, bir tildan o‘zga tilga o‘g‘irish usullarini o‘rganish hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni umumlashtirish, mavjud ilmiy qarashlarga pozitiv munosabat bildirish;

zamonaviy qoraqalpoq shoirlari poetik asarlari o‘zbekcha va qoraqalpoqcha badiiy tarjimalarida o‘ziga xoslikka aniqlik kiritish;

shoir poetik mahorati va tarjimon ifoda uslubini qiyosiy tahlilga tortish, asar tarjimasi yutuq-kamchiliklarini baholash;

qoraqalpoq shoirlari ijodining o‘zbekcha va inglizcha tarjimalarida milliy koloritni qayta yaratish muammosiga e‘tibor qaratish;

poetik asar tagmatnida uchraydigan metaforalar tarjimasi strategiyalarini ilmiy jihatdan asoslash;

zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlarining o‘zbekcha va inglizcha tarjimasini qiyosiy-tipologik tahlilga tortish;

zamonaviy qoraqalpoq shoirlari ijodida matn asliyatiga xos muqobil so‘z tanlashda tarjimon asar g‘oyasi, shoir uslubi va maqsadini to‘g‘ri anglagan holda ijodiy-individual yondashuvi, tarjimada transkripsiya va transliteratsiya usuli yordamida ifodalashni original nusxa bilan bir-biriga muqoyasada tavsiflash.

Tadqiqot obyektini sifatida zamonaviy qoraqalpoq shoirlaridan T.Jumamuratov, A.O‘tepbergenov, I.Yusupov, S.Ibragimov, X.Davletnazarov, J.Izbasqanov, B.Genjemuratov, G.Davletova poetik asarlari o‘zbek va ingliz tillaridagi tarjimalar to‘plami, matbuotda e‘lon qilingan she‘r tarjimalari hamda internet saytlariga joylashtirilgan asarlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasi asliyat bilan nisbati, tarjima nazariyasi va amaliyoti tadqiqi, tarjima usullari hamda strategiyalari, tarjimada milliy koloritni qayta tiklash va mutarjim poetik mahorati analogiyasi, qiyosiy-tipologik talqin etish o‘ziga xosligining umumiy mohiyatini xususiy tasavvur etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada o‘rni-o‘rni bilan tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik talqin va struktural metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida badiiy tarjima muammosining o'rganilish tarixi tipologik yondashuv asosida ko'rib chiqilib, mavjud qarashlarga pozitiv ilmiy munosabat baho berilgan hamda zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlarining o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimalarida tarjimon mahorati amaliy misollar asosida aniqlangan;

tadqiqotda zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlarini tarjima qilish jarayonida milliy leksik birliklarni yetkazish, o'ziga xos mental-madaniy xususiyatlarni saqlab qolish, ayniqsa ingliz tiliga tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishda tarjimonning individual mahorati asosida amalga oshirilgan muqobil tarjima yechimlari tahlil qilindi. Bu jarayonda qoraqalpoq va o'zbek tillari mushtarakligi tarjimonga badiiy ekvivalentlarni izlashda nisbatan qulaylik yaratishi asoslab berilgan;

tarjimonning poetik-estetik idroki va matn asliyatiga sodiqlik masalasi ilk bor zamonaviy qoraqalpoq she'riyati asosida har ikki til kontekstida (o'zbek va ingliz) qiyosiy o'rganilib, tarjimada kontekstual moslik va funksional ekvivalentlik mezonlari aniqlashtirildi. Bunda ayniqsa metafora va troplarning tarjimadagi ifoda uslublari va tarjima strategiyalari tizimli asosda ilmiy baholangan;

hozirgi qoraqalpoq shoirlari asarlarining o'zbekcha va inglizcha tarjimalari qiyosiy-tekstologik jihatdan o'rganilib, ayniqsa inglizcha tarjimalarda uchraydigan qisqartmalar, leksik va sintaktik transformatsiyalar holati nazariy umumlashtirilib, tarjimonning individual tarjima tamoyillarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi lingvokulturologik omillar aniqlanib, ular amaliy tahlil bilan mustahkamlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

azal-azaldan o'zbek va qoraqalpoq xalqlari tili, e'tiqodi, madaniyati va adabiyoti mushtarakligi umumiy xarakterga egaligi dalolatlangan;

tarjima nazariyasi va amaliyotining tadqiq etilishi jahon va turkiy adabiyotshunosligi misolida qiyosiy-tipologik tahlilga tortilishi asnosida tarjima nazariyasi modellari, tamoyillari, badiiy tarjima asosiy talablari oydinlashtirilgan;

badiiy tarjima bo'yicha turkiy xalqlar adabiyotshunosligida to'plangan tajriba sharhlanib, ularga pozitiv munosabat bildiriladi va hozirgi qoraqalpoq adabiyotshunosligida muammo tadqiqi bu borada yetarli emasligi aniqlangan;

jahon va turkiy xalqlar olimlarining badiiy tarjima sohasida stilistik usullarni o'girishda tarjima strategiyasi tushunchasi bo'yicha nazariy qarashlar rahbarlikka olingan, zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida troplar, xususan, metaforani tarjimalash strategiyalari, o'zbek va ingliz tarjimonlari mahorati ko'rsatib berilgan;

zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasini qiyosiy-tipologik talqin qilish vositasida tarjimonning alternativ so'z tanlash iqtidori hamda tasvir ruhiyatini shakllantirish o'ziga xosligi aniqlangan;

zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasini qiyosiy-tipologik talqin qilish vositasida obraz va badiiy mohiyatni qayta tiklash jarayoni, unda tarjimon poetik mahorati qirralari ochib berilgan;

qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasini qiyosiy-tipologik talqin qilish vositasida milliy kolorit qayta tiklanishi, muallif toponimik atamalar qo‘llash darajasi usul, metod va strategiyalari belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo‘yilgan muammo tadqiqiga mustaqillik mafkurasi talablari asosida ilmiy jihatdan xolislik mezonini bilan yondashilgan, zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasini bo‘yicha tegishli metodlar orqali muayyan xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, tadqiqot maqsadi hamda vazifalari taqozolangan yangi yondashuvdan foydalanish uning asoslanganligini ta‘minlaydi. Qoraqalpoq ijodkorlari o‘zbekcha va inglizcha tarjimasini tahlillariga oid qarashlar haqqoniy va asosli ekanini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari va xulosalari amaliyotga joriy etilgani va ular mazmunida hozirgi adabiyotshunoslikda yangilanayotgan ilmiy tafakkurga suyanilgani va uni qisman boyitgani ishonchlilik darajasini oshiradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari hozirgi qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasini o‘ziga xosligi, matnni qardosh va xorijiy tillardan o‘girishda tarjimon poetik mahorati, obyekt sifatida tanlangan xalqlar tarjimachilik tarixiga oid tamoyillarni o‘rganish uchun ilmiy-nazariy asos vazifasini o‘taydi. Matnlarni badiiy tarjimasini tahlili asosida chiqarilgan umumlashma xulosalar tadqiqot originalligini oshiradi, bu yo‘nalishda kuzatishlar miqyosini kengaytiradi. Tadqiqot natijalaridan adabiy aloqalar, tarjima nazariyasi bo‘yicha monografik tekshiruvlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta‘lim muassasalarida “Adabiy aloqalar”, “Tarjima nazariyasi”, “Jahon adabiyoti”, “Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanma, risolalar yaratish hamda maxsus kurs va tanlov mashg‘ulotlari o‘tkazishda qo‘shimcha material bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida tarjimon ifoda uslubi hamda poetik mahorati bo‘yicha olib borilgan tadqiqot, olingan ilmiy natijalar asosida:

jahon va turkiy xalqlar adabiyotshunosligida badiiy tarjima muammosining o‘rganilish tarixi tipologik yondashuv asosida ko‘rib chiqilib, mavjud qarashlarga pozitiv ilmiy munosabat baho berilgan hamda zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlarining o‘zbekcha va inglizcha badiiy tarjimalarida tarjimon mahorati amaliy misollar asosida aniqlangan ilmiy-nazariy qarashlardan $\Phi A-\Phi 1-005$ – “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” (2017-2020-yillar) mavzularida innovatsion tadqiqot loyihasini amalga oshirishda, shuningdek, zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida tarjimon qo‘llagan ijodiy va so‘zma-so‘z usullarda yutuq va kamchiliklarni aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 9-oktabrdagi 460/1- sonli ma‘lumotnomasi). Natija o‘laroq, tarjimonning poetik-estetik idroki va matn asliyatiga sodiqlik masalasi ilk bor zamonaviy qoraqalpoq she‘riyatini asosida har ikki til kontekstida (o‘zbek va ingliz) qiyosiy o‘rganilib, tarjimada kontekstual moslik va funksional ekvivalentlik mezonlari aniqlashtirilgan va bunda ayniqsa metafora va troplarning tarjimadagi

ifoda uslublari va tarjima strategiyalari tizimli asosda ilmiy baholangan metodologik xususiyatlarni oydinlashtirishga erishilgan;

tadqiqotda zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlarini tarjima qilish jarayonida milliy leksik birliklarni yetkazish, o'ziga xos mental-madaniy xususiyatlarni saqlab qolish, ayniqsa ingliz tiliga tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishda tarjimonning individual mahorati asosida amalga oshirilgan muqobil tarjima yechimlari tahlil qilindi. Bu jarayonda qoraqalpoq va o'zbek tillari mushtarakligi tarjimonga badiiy ekvivalentlarni izlashda nisbatan qulaylik yaratishi asoslab berilgan ilmiy-nazariy qarashlarga asoslanib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyida qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida milliy koloritni qayta tiklash muammolari talqini bo'yicha ko'rgazma va ekskursiya jarayonlarida, muzeyga tashrif buyurgan mehmonlar bilan inglizcha muloqot o'rnatishda, mutarjim mahoratini tipologik talqin etish, qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida milliy koloritni ta'minlash bilan bog'liq qarashlar ilmiy-nazariy anjumanlarda ma'ruzalar shaklida e'lon qilindi (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2024-yil 30-sentabrdagi 01-02/03-180-sonli ma'lumotnomasi). Bu natijalar o'zbek va ingliz tillarida uchraydigan maishiy leksika, istorizmlar, arxaizmlarni tarjima qilishga asos vazifasini o'taydi;

hozirgi qoraqalpoq shoirlari asarlarining o'zbekcha va inglizcha tarjimalari qiyosiy-tekstologik jihatdan o'rganilib, ayniqsa inglizcha tarjimalarda uchraydigan qisqartmalar, leksik va sintaktik transformatsiyalar holati nazariy umumlashtirilib, tarjimonning individual tarjima tamoyillarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi lingvokulturologik omillar aniqlanib, ular amaliy tahlil bilan mustahkamlangan faktik materiallardan Qoraqalpog'iston Respublikasi ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, radioeshittirish hamda teleko'rsatuvlarda, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining "Til bayligi – el bayligi", "Tilge itibar – elge itibar" dasturlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasi 2024-yil 25-sentabrdagi № 05-22/424-sonli ma'lumotnomasi). Natijada joriy kunda qoraqalpoq shoirlari asarlarining xorijiy va turkiy tillarga tarjimasi amalga oshirilib, madaniy hamkorlik hamda adabiy aloqalar rivoji, yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishini oshirish bo'yicha tavsiya va mushohadalar ommaviy targ'ibotiga hissa qo'shilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro konferensiyadagi ma'ruzalarda bayon qilinib, ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 8 ta maqola respublika, 1 ta maqola xorijiy jurnalda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 127 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismida tadqiqot mavzusi dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammo o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, ish maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmeti tavsiflangan, dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari belgilab olingan, mavzu ilmiy yangiligi, amaliy natijalari yoritilgan, dissertatsiya ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, tadqiqot tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jahon adabiyotshunosligida tarjima usullari va uning tadqiqi masalalari”** deya nomlangan bo‘lib, uch faslni o‘z ichiga oladi. Bob **“Tarjima nazariyasi va amaliyoti muammosi o‘rganilishi”** deb ataladigan birinchi faslida milliy adabiyotlar takomilida adabiy aloqalar vazifasi, ijodiy ta‘sir doirasi, jahon hamda turkiy xalqlar adabiyotshunosligida tarjima nazariyasi va amaliyotida muammo ishlanganlik darajasi tipologik talqin etiladi.

“Ayonki, qardosh turkiy xalqlar adabiyoti olis tarixiy davrlardan buyon o‘zaro mushtarak adabiy aloqalar silsilasida biri ikkinchisining adabiy maktabida vujudga kelgan hodisalardan, bebaho badiiy durdonalari ma‘no-mohiyatidan boxabar bo‘lishgan”³. Vaholanki, til, e‘tiqod va jo‘g‘rofiy makon birligida baqamti yashagan aholi adabiy zavqi ham umumiy ko‘rinish hosil qiladi, milliy adabiyot tushunchasi rivojida aynan adabiy aloqalar muhim rol o‘ynaydi. Aslida “har bir milliy adabiyot boshqa adabiyotlardan ajralgan holda alohida rivojlanmaydi. Ular bir-biriga ijodiy ta‘sir o‘tkazadi”⁴. Turkiy xalqlar adabiy aloqalari timsolida ham jarayon amaliy tasdig‘i o‘z ifodasini topadi, qadimdan so‘z san‘atkorlari orasida “ustoz-shogird” an‘anasi shakllanganligi, badiiy ijod ruhiyati mustahkamlanishida adabiy ta‘sir quvvat-hofizasi mushohadalarimizni mantiqan dalolatlaydi. Shular jumlasiga kiradigan madaniy hamkorlik muhim halqasi – badiiy tarjima sohasi ham adabiy rivojlanish qonuniyatlari doirasida salmoqli o‘rin egallaydi Dastavval tarjima nazariyasi uning amaliyotini o‘rganish, ifoda usullariga e‘tibor qaratishdan boshlangan bo‘lsa-da, keyinroq amaliyotga uzluksiz ta‘sir o‘tkaza boshlaydi, boyitadi hamda qulaylashtiradi. Tarjima til bilan bog‘liq nazariy sathi tarjimon faoliyati asosiy yo‘nalishlarini belgilaydigan tarjima amal qilish holati modelini aniqlashni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Nazariy jihatdan modellashtirish tavsifiy belgilarni tarjima nazariyasiga yig‘adi. Joriy holatda quyidagi ikki aspekt belgilanishi muhim, deya hisoblagan Minyar-Beloruchev tarjima nazariyasi tasvirlanadigan jarayon barchasini emas, faqat uning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi, deya e‘tirof etadi, mavjud vaziyatda asl nusxa matni bilan o‘girilayotgan boshqa til o‘rtasidagi munosabatlar hammasi emas, balki qonuniyatlarga hamohang aloqalar, jumladan, an‘ana, izchil takrorlanadigan hamkorlikka urg‘u beriladi. Tarjimon faoliyati tabiati tarjima nazariyasi tomonidan “ko‘zda

³ Гайлиева О. Ғарезсизлик дэўири түркий халықлар лирикасында формалық изленислер хэм олардың типологиясы (Өзбек, қарақалпақ хэм түркмен лирикасы мысалында): Филол. илим. д-ры. ... дис. – Нөкис, 2019. – Б.19.

⁴ Иногамов Р. Адабий қардошлиқ тароналари. –Тошкент: Адабиёт ва саънат, 1972. – Б. 5-6.

tutilmagan” xususiy teng ekvivalentlikni topish mahorati bilan bog‘liq bo‘ladi. 2) fan boshqa sohalarida ko‘zga tashlanganidek, tarjima nazariyasida ham faqat bir model emas, balki modellashtiradigan tarjimon faoliyati turli-tuman aks ettiradigan hamda uning xilma-xil xususiyatlarini ko‘rsatadigan aksar modellar hosil qilinadi. Tasvirlanayotgan tushuncha murakkabligi, uni har tomonlama o‘rganiladigan jarayon barcha qirralarini qamraydigan bir umumiy model yaratish imkonsizligi masala mohiyatini oydinlashtiradi. shunga bog‘liq ravishda tarjima nazariyasi hozirgi bosqichida “tarjima modellari” bir qator turlari paydo bo‘ldi⁵.

Fransuz shoiri va tarjimoni Et‘en Dole (1509-1546) fikriga ko‘ra, tarjimon asosan, beshta tamoyilni rahbarlikka olishi shart: 1) o‘girilayotgan matn mohiyati va muallif ijodiy niyatini to‘la tushunish kerak; 2) tarjima asl nusxasi hamda o‘girilayotgan tilni to‘liq bilishi lozim; 3) so‘zma-so‘z tarjimadan yiroq bo‘lishi shart, zotan, u matn shakliy andozasini o‘zgartirib yuboradi; 4) tarjimada til umumiy qo‘llaniladigan shakllaridan foydalanish joiz; 5) so‘zlar to‘g‘ri tanlanishi va o‘z o‘rnida qo‘llanilishi zarur, asliyat umumiy ma‘no-mohiyati to‘la bayon etilishi lozim⁶. Tarjima tarixida so‘zma-so‘z tarjima va ijodiy tarjima shakllari mavjud, ikki usul tarafdorlari o‘rtasida doimo ziddiyat hukmronlik qilib kelgan.

Tarjima nazariyasi yo‘nalishida bir qator soha vakillari izlanishlar olib borsa-da, istiloh hali ham amaliyotdan orqada qolayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. 1790-yilda ingliz olimi Aleksandr Taytler (1747-1813) “Tarjima tamoyillari” atamasida nashr qilingan asarida tarjima asosiy talablarini quyidagicha belgilaydi: 1) tarjima asliyatida aks etgan g‘oyani to‘liq gavdalantirish lozim; 2) tarjima ifoda uslubi va tasvir yo‘sini originaldagidek saqlanishi shart; 3) tarjima matni asliyatdagi kabi yengil sharhlanishi joiz⁷. Joriy talablar zamonaviy fan sathida ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan, badiiy tarjima ustuvor tamoyillarini tayinlaydi.

O‘zbekistonda tarjima nazariyasi va amaliyoti ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan olim G‘.Salomov istilohga quyidagicha ta‘rif beradi: “Tarjima asosiy hissasi uning boshqa til vositalari asnosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so‘z san‘ati ekanligi bilan belgilanadi”⁸. Mutaxassis tarjima nazariyasi milliy madaniyat tarkibiy qismi ekanligi, unda til rivoji, adabiy hayot, davr ruhiyatini ham inobatga olish lozimligini ta‘kidlaydi. Muallif nazdida, adabiy aloqalar go‘yo bir dengiz, badiiy tarjima jarayoni uni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Bobning **“Turkiy adabiyotshunoslikda badiiy tarjima masalalari o‘rganilishi”** deb ataladigan ikkinchi faslida turkiy xalqlar olimlari asarlari sharhlanadi va tarjima nazariyasi bo‘yicha qarashlarga munosabat bildiriladi.

Akademik Baxtiyor Nazarov “Badiiy tarjima har bir xalq adabiy arsenalida muhim o‘rin egallaydigan ijodkorlik tiplaridan biri. U millatlararo do‘stlik, adabiy aloqalar muayyan bog‘lovchisi bo‘lib ham xizmat qiladi”⁹ – degan mushohadani ilgari suradi. Darhaqiqat, badiiy tarjima adabiy aloqalar bir turi sanalib, u ikki yoki

⁵ Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод. – М.: Воениздат, 1980. – С. 124-129.

⁶ Основные принципы перевода по мнению Э.Доле и А.Тайтлера. <https://com/@fanyitranslations-osnovnyye-principyu-perevoda-po-mneniu-e-dole-i-a-taitlera>

⁷ O‘sha manba.

⁸ Саломов Г. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 93.

⁹ Назаров Б. Таржимашунослик – масъулиятли илмий ижод // К.Курамбаев. Таржима ва таржимон масъулияти. – Тошкент: Чўлпон, 2007. – Б. 3.

bir nechta adabiyotlarni o‘zaro bog‘lashda ko‘prik vazifasini o‘taydi. Shu boisdan, badiiy tarjima masalalari hamisha ilmiy jamoatchilik e‘tiborini o‘ziga tortgan. Jumladan, o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy tarjima ilmiy muammolariga bag‘ishlangan juda ko‘p asarlar mavjud bo‘lib, ularda, asosan, tarjima tarixi, nazariyasi, metodologiyasi, badiiy madaniyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, o‘zbek tarjimashunosligi takomili, tarjimon mahorati, tarjima san‘ati, asl nusxani tarjimada qayta tiklash tamoyillari o‘ziga xosligi masalalari keng o‘rganilgan¹⁰.

Qozoq adabiyotshunosligida¹¹ M.Avezovning “Pushkinni qozoqchaga tarjima qilish tajribasiga oid”, “Zamon va adabiyot”, Q.Q.Alpisbayevning “Qozoq tarjimasini nazariyasi va tajribasi”, T.O.Esembekovning “Tarjima poetik masalalari” (tarjimashunoslik va adabiy komparativistika dolzarb muammolari) asarlarida badiiy tarjima va uning qozoq adabiyoti rivojida tutgan o‘rni umumlashtiriladi.

Qirg‘iz adabiyotshunosligida¹² Aksana Musayevaning “Qirg‘iz bolalar adabiyotida tarjimaning roli” atamasidagi maqolasi, N.Qasimbekov hamda Z.Karayevalarning “Tarjimaning nazariy va amaliy asoslari”, A.Sadikovning “Badiiy tarjima tarixi va nazariyasi masalalari” kabi asarlarida qirg‘iz adabiyotida tarjima tarixi, badiiy tizimda vositachilik roli, bir tildan ikkinchi tilga o‘g‘irishda milliy o‘ziga xoslik hamda umummushtarak estetik tamoyillar tahlilga tortiladi.

Turk adabiyotshunosligida E.Giray “O‘zbek yozuvchisi Pirmqul Qodirov romanchiligi” (Türkiya: Atvın 2018) atamasidagi tadqiqotida o‘zbek adibi P.Qodirov romanlarining turk tiliga o‘g‘irish jarayoni, badiiy tarjima adabiy aloqalar yo‘nalishida tutgan o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida mushohada yuritadi.

¹⁰ Эгамова Я. Асл нусхадаги қахрамонлар образини бадий таржимада қайта яратиш масаласи: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1974. 202 б.; Таржима санъати. – Тошкент, 1961. – 160 б.; Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 304 б.; Таржима санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976; Таржима санъати. 3-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – 311 б.; Таржима санъати. 4-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 327 б.; Таржима санъати. 5-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 304 б.; Таржима санъати. 6-китоб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – 263 б.; Бадий таржиманинг актуал масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 227 б.; Таржimon маҳорати. – Тошкент: Фан, 1979. – 195 б.; Жўраев К. Таржима санъати. – Тошкент: Фан, 1982. – 60 б.; Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 190 б.; О‘sha muallif. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 232 б.; Ўзбекистонда бадий таржима тараққиёти (таржима тарихидан лавҳалар). – Тошкент: Фан, 1986. – 205 б.; Ўзбекистонда таржимачилик. – Тошкент: Фан, 1988. – 227 б.; Исомиддинов З. Яқин туркий тиллардан шеърӣ таржима хусусиятлари (“Манас” эпоси таржимаси мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1991. – 191 б.; Жавбўриев М. Бадий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш (О.Ёқубов “Улуғбек хазинаси” тарихий романининг немисча таржимаси мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1991. – 153 б.; Очилов Э. Рубоий таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1994. – 134 б.; Мирзокулов С. Қариндош тиллардан таржима асарларнинг лексик-семантик тадқиқи (Т.Қосимбековнинг “Синган қилич” романи таржимаси асосида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2000. – 155 б.; Яркинова Б. Туркий тиллардан таржимада тарихий колоритнинг акс эттирилиши (Қирғиз адиби Т.Қосимбековнинг “Синган қилич” романи таржимаси мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2002. – 25 б.; Дильманов И. Қардош тиллардан эпос таржимасида миллий ўзига хосликнинг қайта талқини: (“Шаҳриёр” ва “Маспошша” дostonларининг ўзбекча таржималари асосида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2005. – 150 б.;

¹¹ Әуезов М. Көркем аударманың кейбір теориялық мәселелері // Көркем аударманың мәселелері. Мақалалар жинағы. – Алматы: Қазақ көркем әдебиет баспасы, 1957; Талжанов С.О. О переводах и переводчиках. / Аударманың лексика – семантикалық мәселелері: (тәжірибелер, толғаныстар, топшылаулар). – Алматы: Ғылым, 1987; Нұрышев С.Н. Абайдың аударма жөніндегі тәжірибесінен. – Алматы, 1954. – 105 б.; Алпысбаев Қ.Қ. Қазақ аудармасының теориясы мен тәжірибесі: оқу құралы. – Алматы: Қазақ университеті, 2001. – 213 б.

¹² Alatoo academic studies. 2016. - № 2.

http://iaau.edu.kg/file?fl=file_ph2_2016.compressed_9037398472868706855.pdf

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida badiiy tarjima muammolarini o'rganish hali to'liq yo'lga qo'yilmaganligini ta'kidlash joiz, binobarin, ba'zi ilmiy asarlar yoki maqolalarni hisobga olmaganda, sohani tadqiq etish darajasi va boshqa tillardan qoraqalpoqchaga o'girish ishlari hanuz yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Qoraqalpoq adabiyotshunosligida Q.Jarimbetovning "XIX asr qoraqalpoq lirikasi janriy xususiyatlari va rivojlanish tarixi" (Nukus: Bilim, 2004); Q.Orazimbetovning "Hozirgi qoraqalpoq lirikasida badiiy shakllar evolyutsiyasi va tipologiyasi" (Nukus: Bilim, 2004), A.Hamidovanning "I.Yusupov ijodi va Yevropa adabiyoti" (adabiy aloqalar va adabiy ta'sirlar masalasi) (Nukus, 1999), D.Paxratdinovning "I.Yusupov lirikasida Sharq mumtoz an'analari" (adabiy aloqalar va ijodiy ta'sirlar) (Nukus, 2001), P.Allambergenovanning "Qoraqalpoq adabiyotida Maxtumquli an'analari" (XIX asr qoraqalpoq poeziyasi misolida) (Nukus, 1999), O.Gayliyevaning "Mustaqillik davri turkiy xalqlar lirikasida shakliy izlanishlar va ularning tipologiyasi" (o'zbek, qoraqalpoq va turkman lirikasi misolida) (dokt. dissert. (DSc), Nukus, 2019), A.Hamidovanning "I.Yusupov ijodi va Yevropa adabiyoti" (adabiy aloqalar va adabiy ta'sirlar masalasi) (nomz. dissert. Nukus, 1999), M.D.Bekbergenovanning "Badiiy adabiyot va tipologik aloqalar" (Synergy: journal of ethics and governance. February- 2023), "Badiiy tarjima nazariyasi" (o'quv qo'llanma) (Nukus, 2005), "Qoraqalpoq adabiyotida an'ana, meros va badiiy tarjima ba'zi masalalari" (Nukus, 2004) asarlarida qoraqalpoq poeziyasi namunalari boshqa xalqlar adabiyoti bilan adabiy aloqalari to'g'risida fikr yuritiladi, tarjima muammolari tahlilga tortiladi.

Bobning "**Metaforalarni tarjima qilish strategiyalari**" deya nomlanadigan uchinchi faslida hozirgi qoraqalpoq shoirlari lirik asarlari o'zbekcha va inglizcha tarjimasida badiiy vositalarni o'girish strategiyalari masalasiga e'tibor qaratiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida "Badiiy tarjimaning lingvostilistik hamda lingvokulturologik xususiyatlari" masalalarini o'rgangan olim Ulug'bek Yo'ldoshev badiiy tarjima yo'nalishida stilistik usullarni tarjima qilish strategiyasi atamasini anglatishi, unga mos troplarni o'girilayotgan tilga aylantirish uchun metod va transformatsiya tanlanadi, degan mushohadani ilgari suradi. Shuningdek, U.Yo'ldoshev¹³ tarjima metodi, tarjima strategiyasi va tarjima transformatsiyasi bir-biridan tafovutlanadigan kategoriyalar ekanligini taniqli olim A.Xurtadon¹⁴ qarashlariga tayangan holda ta'kidlaydi. Shuningdek, u o'z mulohazalarini tasdiqlash maqsadida Kringsdan iqtibos keltiradi: "Tarjima strategiyasi tarjimon maqsadi kesimida yuzaga keladigan aniq tarjima masalalari yechimini topish uchun tarjimon ongli ravishda tuzgan yashirin rejalaridan iborat"¹⁵. Demak, olim aniqlagan tarjima strategiyasi tarjimon faoliyatini tashkil etishda loyihalashtiradigan rejalarini kompleksini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ayonki, poeziyada lirik qahramon ichki kechinmalari so'z yordamida ifoda etiladi. Har bir ijodkor ruhiy holat-manzaralarni badiiy tasvir vositalari orqali

¹³ Йўлдошев У. Бадий таржиманинг лингвостилистик ва лингвокультуролик хусусиятлари. Монография. Самарқанд: "Самарқанд давлат чет тиллар институти" нашриёти, 2022. – Б. 70.

¹⁴ Hurtado A. La traductología: lingüística y traductología, Trans 1. 1996. – P.151-160.

¹⁵ Krings H.P. Translation problems and translation strategies of advanced German learners of French. Interlingual and intercultural communication. – Tübingen: Gunter Narr, 1986. – P. 263-275.

umumlashtiradi, umumkayfiyat emotsional ta'sirchanligini oshiradi. Shu boisdan, she'riyatda shoir xilma-xil uslubiy birliklardan o'rinli hamda unumli foydalanadi. Stilistik tasvirlarning ichida eng faoli metafora sanaladi, adabiy tafakkurga muqobil vosita individual talqin va falsafiy umumlashma bog'lanishini mustahkamlaydi. Metaforani tarjima qilish yuzasidan bir qator yondashuvlar mavjud, xususan, rus olimi Ya.I.Retsker istilohni tarjima qilish to'rt usulini tavsiya etadi: 1. Alternativ muvofiq so'z tanlovi, joriy strategiya asliyat tilidagi metafora o'girilayotgan tilda to'la mos keladigan ekvivalenti mavjud bo'lganda qo'llaniladi; 2. Variativ mos kelish strategiyasi asliyatda metafora tarjima qilinayotgan tilda bir nechta analoglari mavjud bo'lsa, tagmatnga to'g'ri keladiganini tanlash vositasida foydalaniladi; 3. Transformatsiya usuli asliyatda qo'llangan metafora asosini to'liq o'zlashtirish, yani transformatsiyalash usuli hisoblanadi; 4. Kalkalash usuli asliyatdagi metaforani so'zma-so'z tarjima qilish jarayonini tavsiflab beradi¹⁶.

Qoraqalpoq shoiri T.Jumamuratovning "Bu dunyoning otgan yorug' tongi ham..." she'rida falsafiy mushohada teranlashib, olam yaralishi, oy va quyosh, tun va kun, inson va turmush, hayot mashaqqatlari, inson xulq-atvori, ma'naviy mezonlar, jumladan, mehr-oqibat, diyonat, sabr-qanoat fazilatlarini ifodalaydi:

Hámme náirse jup-jup bolip jaralgán,
Tún artınan kún keledi taǵıda¹⁷.

Matnda tabiat bilan bog'liq subyektiv tasavvurlar: tong, tabiat qonuni, tun, kun muallif tomonidan jonlantirilib, badiiy tasvirlanadi. Shu o'rinda shoir she'r birinchi bandi to'rtinchi misrasida "tun ortidan kun keladi hali ham" deya urg'u beradi, muvozanatda tavsiflangan g'oyada bir jihat e'tiborni tortadi: ijodkor kun ortidan tun keladi, deya tasvirlamaydi, balki tun ortidan kun kelishini ta'kidlaydi. Metaforik birikuv ziddiyatdan (tun-kun) falsafiy umumlashma hosil qiladi, shoir nazdida, zulmatdan keyin vujudga keladigan yorug'lik insoniyatga saodat keltiradi. Yomonlik intihosi aslida ezgulik ibtidosini ta'minlaydi, muallif ishonch hamda umid bilan tasvirlayotgan aqidasi nuraifshon bir dard zalvori bo'y ko'rsatadi.

Matn ikkinchi bandida ma'no quyidagicha umumlashtiriladi:

Ózin qoyan sanaytuǵın adam joq,
Arıslan jatır hár jurektin ishinde.

She'r metaforalarga boy, unda har bir inson fe'l-atvori ma'no ko'chish usulida ochib berilgan. Bu olamda har xil xarakterga ega insonlar mavjud, ba'zilar mol-davlatni baxt deya tasavvur etsa, ayrimlar kuch-quvvatni birinchi o'ringa qo'yadi, o'zini "misli arslon" his qiladi. Shoir hech kimsa o'zini ojiz sanamasligini "gavhar-boylik", "po'lat-mustahkam", "quyon-qo'rqq", "arslon-botir" metaforik birikmalari asnosida ifodalaydi. Matnda anafora takrori ijodkor mahoratini belgilaydi, jumladan, band misralari avvalida "birov" so'zini qayta-qayta qo'llaydi, joriy holat, bir tomondan, ta'kidni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, o'quvchi e'tiborini jamlashga yordam beradi. Odamzodga berilgan xislatlar uning qanday inson sifatida o'zini-o'zi shakllantirishiga darajasiga chambarchas bog'liq.

¹⁶ Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974. – 237 с.

¹⁷ Жумамуратов Т. Аралға кедим оралып. – Нөкис, 2011.

She'rni ingliz tiliga To'maris Aziyeva "A shining dawn of the world" atamasi bilan tarjima qiladi, muallif matn umumiy mohiyatini saqlagan holda "yarqiragan olam tongi" ko'rinishida ingliz tiliga o'giradi. Tarjimada "Night is followed by day again" metaforalarni o'girishda tarjimon so'zma-so'z tarjima usulidan o'rni-o'rni bilan foydalangan. She'r inglizcha matnida o'xshatish metaforalari uchun tanlangan so'zlar "diamond – gavhar, steel - po'lat, lion – arslon" birliklari to'g'ri foydalanilgan bo'lsa-da, tarjimon uchinchi satrda "o'zini quyon hisoblaydigan odam yo'q" matnidagi "quyon" metaforasini "coward" so'zi (qo'rqoq) yordamida variativ mos kelish strategiyasiga yo'naltiradi. Joriy holat tarjimon jiddiy muvaffaqiyatidan darak beradi, negaki, ingliz tilida qo'rquv hissini belgilashda jismoniy holatni tasvirlashda "rabbit" (quyon) nisbati qo'llanilmaydi. Agar qoraqalpoq tilida hadik-qo'rquv ruhiyatini ifodalashda "quyon" obrazi keng qo'llanilsa, ingliz tilida jonivor yaxshi hayvon sifatida qadrlanadi. Tarjimada takror usuli transformatsiyalash vositasi yordamida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya ikkinchi bobi "**Zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha tarjimasida o'ziga xosliklar**" deya nomlanib, unda qoraqalpoq shoirlari ijodi o'zbekcha va inglizcha tarjimasida qiyosiy talqin qilinadi, tarjimada muqobil so'z tanlovi va obrazni qayta tiklashda tarjimon o'ziga xos mahorati ochib beriladi. Bob "**Alternativ so'z tanlashda o'ziga xosliklar**" deb ataladigan birinchi faslida badiiy tarjimada so'z va uning mazmun-mohiyati xususida fikr yuritilib, muqobil so'z tanlashda tarjimon mahorati tavsiflanadi.

Tarjimada so'z muayyan vazifa bajaradi, matn o'girilayotgan tilda ma'no kitobxonga qulay va tushunarli, aniq va lo'nda yo'sinda yetkazib berish muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, tarjimon asar tarjimasida asliyatga muqobil so'zlarni tanlay bilishi shart, binobarin, o'girilayotgan matnda lug'aviy konstruksiyalar tanlovi poetik iqtidorni taqozolaydi. Jumladan, qoraqalpoq shoiri K.Karimov bir qator she'rlari Salim Ashur, Rustam Musurmon tomonidan o'zbekchalashtirilgan. Albatta, har bir shoir tarjimada ijodiy va tarjimonlik mahoratini ishga soladi. Shoir qalamiga mansub "Áyledi" she'rini Salim Ashur o'zbek tiliga o'giradi, "Ayladi" matnida muallif dunyo o'tkinchiligi, inson taqdiri, hayot mohiyati, ibtido va intiho, g'am va shodlik yonma-yonligi, yaxshilik va yomonlik ziddiyatini tasvirlaydi.

O'zbekcha tarjimada:

Falak kimni saru samon ayladi,

Ko'nglimda har kuni fig'on ayladi,

Ming yil quyosh nurin to'kib zaminga,

Dashtu sahro-cho'lni rayhon ayladi¹⁸.

Tarjimon matnda she'r mazmunini saqlashga intilsa-da, ba'zi o'rinlarda so'z to'g'ri ma'nosini keltira olmaganligi bo'rtib ko'rinadi, jumladan, asliyat birinchi misrasi "Bul pálek kimlerdi aman áyledi" tarjima jarayonida "Falak kimni saru samon ayladi" tarzida o'zgartirilgan. Ko'rinadiki, qoraqalpoqcha "aman" so'zi o'rnida o'zbek tilida "samon" shakli qo'llanilgan, asliyatda tinchlik-omonlik ma'nosi tarjimada o't-o'lan mazmuniga o'zgargan. Shuningdek, qoraqalpoqchada

¹⁸ Қорақалпоқ шеърляти. К.Каримов шеърляри. Қорақалпоқ тилидан Салим Ашур таржимаси. <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/qoraqalpoq-sheriyati/>

mavjud mantiqiy ta'kid (bul) tarjimada tushirib qoldirilgan, matn originalida “dashti, taw-taslardı rayxan áyledi” satrida “taw-taslardı” jumlası tarjimada “sahro-cho‘lnı” tarzida o‘g‘irilgan. Asliyatda ko‘zga tashlanadigan uslubiy g‘alizlik (dashti, taw-taslardı) o‘zbekchada yanada mavhumlashadi (dasht-sahro-cho‘l). She‘rning ikkinchi bandida “Álemge keltirdi insan balasın” misralari ham o‘zbekchada no‘to‘g‘ri tarzda “Olamga keltirdi tog‘larning toshin” shaklida talqin qilinadi. Yaratgan san‘ati bilan vujudga kelgan inson aslida mo‘jiza, unda Olloh Taolo qudrati o‘z aksini topgan. Tarjimon ma‘no maxrajini tog‘-u-toshlarga yo‘naltiradi. Bu xususiyatlar tarjimon so‘z quvvat-hofizasini aniq tasavvur qilmaganini anglatadi, poetik g‘oya ifodasida hosil bo‘lgan nuqsonlar o‘quvchini chalg‘itadi. Originalda uchinchi shaxs – u tomonidan tasvirlangan tafsilot “Gáhinde shad qıldı, gá tókti jasın” tarjimada birinchi shaxs bayoniga “Odam goho kuldi, goh to‘kdi yoshin” o‘zgaradi. Shu tariqa tarjimon matnda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yadi, ba‘zan so‘z ekvivalentini o‘zbekchada to‘g‘ri ifodalay olmasa, ayrim holatlarda esa ma‘no ustamasini boshqa tomonga yo‘naltiradi.

Bobning “**Obraz va uning badiiy tarjima qayta tiklanishi**” deb nomlangan ikkinchi faslida zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha tarjimasida obrazni qayta tiklash jarayoni o‘ziga xosligi, aslyiat va tarjima nisbati, ijodiy malaka hamda tarjimon poetik mahorati nazariy sathda umumlashtiriladi.

O‘z ijodida betakror tashbehlar, murakkab metaforalardan samarali foydalanadigan S.Ibragimov she‘riyati ma‘no-mohiyatini anglash kitobxonga oson kechmaydi, joriy holat badiiy tarjimada ham ziddiyatlar hosil qiladi. Biroq malakali tarjimon murakkab metaforaga qurilgan matnni teran anglaydi, uning jozib ifodasini ikkinchi tilda qayta tiklaydi. Bu borada erkin ijodiy tarjimalari bilan tanilgan R.Musurmon¹⁹ tajribasi jiddiy muvaffaqiyatdan dalolat beradi, xususan, uning o‘zbekchaga o‘g‘irgan S.Ibragimovning “Sokrat” atamasidagi she‘ri tarjiması malakaviy jihatdan pishiq-puxtaligi, stilistik vositalardan o‘rinli va unumli foydalanilganligi, shakl va ma‘no birligi saqlanganligi bilan e‘tiborni tortadi. Tarjimada:

Bu jomni qayta qo‘lga olmas edi –
Qadr-qimmatidan jon aziz bo‘lsa,
Bu ulug‘ zot Suqrot bo‘lmas edi.

She‘rda shoir inson hayoti va qadriyat mezonlari, borliq yaratilishi, haqiqat va adolatsizlik, mehr-oqibat va diyonat falsafiy manzarasini chizadi, ruhiyat tahlilini metaforik obraz qatimiga singdiradi. Muallif matnda inson hayoti qay darajada aziz sanalsa, qadr-qimmatı ham shunchalik qiymatga ega bo‘ladi. Metaforik birikmalar vositasida Suqrotni tilga oladi, asar lirik qahramoni – qariya obrazini buyuk faylasuf qiyofasi bilan muvozanatda tasvirlaydi. Alloma donishmandligidan hayratga tushgan shoir turmush mashaqqatlarini totgan, oq-qorani ajratgan yoshi katta insonni donolik timsoli sifatida tavsiflaydi. Mana shu xarakter Suqrotning donishmandligi bilan qiyoslanib ko‘rsatiladi, obraz muallif ijodiy niyatini o‘quvchiga yetkazishda badiiy vazifa o‘taydi, didaktik g‘oyani timsoliy ifodada anglatish adabiy talqin emotsional bosimi hamda ekspressiv tezkorligini

¹⁹ Ибрагимов С. Йўл ўртаси. Узбек тилига таржима қилган Р. Мусурман. – Тошкент: Адабиёт, 2021.

ta'minlaydi. Sharqda azal-azaldan yoshi ulug' inson g'oyat qadrlangan, milliy mentalitetga muvofiq, qariyalarga ehtirom ko'rsatish an'ana tusini olgan. Shuni inobatga olgan shoir Sharq va G'arbga xos obrazni parallel tasvirlaydi, munosabat ottenkasi ikki qiyofani muqoyasalashga imkon beradi. Muallif uslubiy izlanishlarini to'g'ri anglagan R.Musurmon stilistik vositalar asliyatini – shakl va mazmunni saqlab qoladi. Matn originalida keltirilgan obraz “bu ulug' zot Suqrot bo'lmas edi” qiyosiy talqinida aslicha tarjima qilingan. Tarjimada satr avvalida kelgan so'zlar kichik harflar bilan boshlanadi, vaholanki, S.Ibragimov o'z ijodida qoraqalpoq adabiy tiliga xos diakretik belgilar: nuqta, vergul, chiziqcha, undovlarga umuman rioya qilmaydi, tarjimon ham bu holatni hisobga olgan. She'r matni Gulnur Azbergenova tomonidan ingliz tiliga o'girilgan:

He wouldn't take a goblet in his hands again -
if his life was more valuable than his dignity,
and that elderly wouldn't be Sokrat.

Tarjima erkin ijodiy usulda amalga oshirilgan, negaki, she'r matni boshida “He wouldn't take a goblet in his hands again” satrlarida “jamdi” so'zi inglizchada “qadaq-tostag'an” shaklidagi ekvivalent bilan almashtirilgan. Aslida ingliz va qoraqalpoq tillari turli oilaga mansub, bir-biridan jiddiy tarzda tafovutlanadi. She'r asliyati “qolna almas edi” davomiy fe'l shakli ingliz tiliga davomiy bo'lmagan fe'l “wouldn't” bilan o'girilgan. Ikkinchi satrda tarjimon ingliz tilida “if his” (agar uning) so'zini qo'shib, matn asosiy mazmunini chiqarishga harakat qilgan. Uchinchi misrada inglizcha tarjimada “and” so'zi qo'shib, “yana” ma'nosida she'r ma'nosini saqlashga xizmat qilgan. Ikkinchi bandda tarjimon ba'zi so'zlarni o'zgartiradi, biroq umumiy mazmunni saqlab qoladi. Jumladan, “That is the everlasting rule of the world” satrlarida original matndagi “tariyqati” so'zi o'rniga “qag'iydasi” tushunchasini qo'llaydi. Biroq kiritilgan o'zgartirish ma'noni bir-biridan uzoqlashtiradi, binobarin, tariqat atama, qoida umumiy leksik birlik sanaladi. Tariqat arabcha “yo'l” ma'nosini bildiradi, “qoida” esa “tartib-intizom” mazmunini ifodalaydi. Tarjima jarayonida tarjimon qoraqalpoq tilida qo'llanilgan ba'zi lug'aviy birliklar mohiyatini aniq tasavvur etolmaganligi ko'zga tashlanadi.

O'zbek va ingliz tillaridagi asar tarjimasini qiyoslaganda, Rustam Musurmon she'rda ifodalangan murakkab metaforalarni shoirona qayta ishlab, tuyg'u oqimini badiiy tasvirlashda o'z mahoratini namoyon etgan bo'lsa, o'zbekcha tarjimada buyuk faylasuf Sokrat qiyofasini qayta tiklashda ijodiy islohotlar qiladi. U alloma obrazini mustaqil ijodiy qirralar bilan boyitadi, aslyat har bir qismi va lug'aviy zaxirasini teranlashtiradi. Tarjimon uzluksiz jarayonda g'oyaviy mazmun va lirik pafosni tubdan yangilaydi, ifoda originalligini tayin etishga intiladi. Yosh tarjimon Gulnur Azbergenova inglizcha tarjimalarida esa ijodiy tarjima shakliga urinish ko'zga tashlanadi, biroq o'girilayotgan matnda ba'zan qoraqalpoqcha ayrim so'zlar ma'no jihatdan kamchiliklarga yo'l qo'yishi, natija o'laroq uslubiy g'alizliklar yuzaga kelishi namoyon bo'ladi. Joriy holat tarjimon yoshligi va tajribasizligi, she'riyat namunalari amaliy sathda dastlabki marotaba qoraqalpoq tilidan ingliz tiliga o'girilayotganligi bilan tavsiflanadi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha tarjimasida milliy koloritni qayta tiklash masalalari”** deb ataladigan uchinchi

bobida hozirgi qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha tarjimasida milliy koloritni qayta tiklashda tarjimon milliy-tarixiy bo‘yoqdorlik bayoni, milliy-maishiy leksika qo‘llanmasi, toponomik atamalar boshqa tilga o‘g‘irish jarayonida foydalanilgan usullar, metodlar va strategiyalar haqida mushohada yuritiladi.

Bobning **“Tarjimada tarixiy-milliy kolorit bayoni”** deya nomlanadigan birinchi faslida qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbekcha va inglizcha tarjimasida tarixiy voqelik, milliy urf-odatlar, an‘ana, qadriyatlar bilan bog‘liq tushunchalarni bir tildan ikkinchi tilga o‘g‘irish jarayonida tarjimon poetik mahorati tavsiflanadi.

Joriy kunda “Qoraqalpaqstan hawazi” gazetasida muntazam ravishda e‘lon qilinayotgan asarlar badiiy tarjimasida zamonaviy qoraqalpoq shoirlari ijodini keng targ‘ib etish va jahon miqyosida ommalashtirishga mustahkam zamin hozirlaydi. “Qoraqalpoq poeziyasi xorijiy tillarda” rubrikasi ostida G.Dauletovaning turkum she‘rlari ingliz tiliga tarjima qilindi. Shoiraning “O‘zbekiston – ona diyorum” atamasidagi she‘rida ona zamin, inson kindik qoni to‘kilgan maskan, vatan tuprog‘i, mehr-oqibat, saxovat, diyonat xislatlari ta‘riflanadi. Murabba shaklida bitilgan matnda milliy koloritni tasvirlash asnosida qoraqalpoq xalqining mehmondo‘stligi, ona vatanga bo‘lgan sadoqat tuyg‘usi tahlil obyektiga aylanadi:

Jigitleri kókpar, ilaq oynaydi,

Aq altin, sari altin qirman toyinda.

Satrlarda qoraqalpoq xalqi azal-azaldan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgani, hosil to‘ylarida ko‘kpar, ilaq kabi xalq milliy o‘yinlari tashkil qilinishi obrazli tasvirlangan. Qoraqalpoq xalqida ko‘kpar, ilaq o‘yinlari qadim zamonlardan buyon mashhur bo‘lgan. O‘yin otliq bir nechta yigitlar guruhi ishtirokida tashkil qilinadi. Musobaqani boshlash ko‘kparchi yigitlar belgilangan chiziq oldida saflanishadi, chiziq 50-60 qadam joyiga ko‘kpar tashlanadi. Odatda, ko‘kpar tortishuviga echki yoki serka qo‘yiladi, belgilangan chiziqda turgan chavandozlar o‘rtaga tashlangan echki yoki serkani olish uchun bellashadi. Shoir o‘z she‘rida zikr etilgan o‘yinni tavsiflab, qoraqalpoq chavandozlari obrazini yaratadi. Matnni G.Azbergenova shunday inglizchalaydi:

We live near the coast of Amudarya

We graze the cattle at the hills.

The chaps play kokpar and ilaq

White gold, yellow gold in the harvest festival²⁰.

Tarjimon, odatda, ijodiy tarjima usulidan foydalanadi, asliyat mohiyati va mantig‘i inglizchada to‘liq saqlangan, deyishga yetarlicha asos mavjud! Biroq shunga qaramasdan, tarjimon qoraqalpoq leksikasida uchraydigan ba‘zi iboralar ingliz tilidagi ekvivalentini topmay, ularni she‘r matnida qanday keltirilgan bo‘lsa, shunday so‘zma-so‘z tarjima qiladi. Jumladan, G.Dauletova she‘rda qoraqalpoq milliy o‘yinlari nomlarini ko‘kpar, ilaq tarzida qo‘llasa, tarjimada ham shu atamalar aks etgani kuzatiladi. Vaholanki, bu ikki tushuncha ingliz o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘lishi mumkin, shu boisdan, keltirilgan so‘zlar to‘g‘risida izoh berilsa maqsadga muvofiq bo‘lard. Joriy holat tarjimon faoliyatidagi kemtiklikni

²⁰ Қарақалпақ әдебияты газетасы. 2023-жыл 31-июль күнги санында “Қарақалпақ поэзиясы шет тиллерде”. Аўдармашылар Г.Сейтниязова хэм Г.Азбергеновалар.

belgilaydi, negaki, har bir xalq madaniyati, milliy folklorida uchraydigan o‘yin boshqa xalqlarda bo‘lmasligi mumkin. Shunday ekan, milliy arealga bog‘liq so‘zlar izohli lug‘atini qo‘shimcha ta‘minlash tarjima qiymatini yanada oshiradi.

Faslda qoraqalpoq shoirlaridan X.Dauletnazarov, J.O‘teniyazov ijodi o‘zbek va ingliz tilidagi tarjimalari qiyosiy talqin qilinib, tarjimon tarixiy-milliy koloritni ifodalashdagi poetik mahorati, foydalanilgan usullarga ham oydinlik kiritiladi.

Bobning ikkinchi faslida **“Tarjimada milliy libos nomlarini aks ettirish”** to‘g‘risida mushohada yuritiladi, nazariy umumlashmalar chiqariladi.

Badiiy tarjimada milliy-maishiy leksika ikkinchi tilda to‘g‘ri va aniq ifoda topishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qoraqalpog‘iston xalq shoiri I.Yusupovning “Cho‘girma” nomli she‘ri o‘zbek va ingliz tillariga o‘girilgan, poetik matnda qoraqalpoq milliy bosh kiyimi xususida so‘z boradi. Shoir milliy bosh kiyim o‘ziga xos tarixiy asoslarga egaligi, bu haqda afsona va rivoyatlarni tinglaganini ta‘kidlaydi. Hozirgi paytda milliy-maishiy atamaga aylangan cho‘girma qoraqalpoq xalqi orasida har kuni kiyilmaydi, odatda, bayram tantanalarida, folklor tadbirlarida foydalaniladi. Milliy kuy ijrosi jarayonida jirovlar uni boshiga kiyishadi. Tarixiy-milliy koloritni quyushtirish maqsadida muallif bosh kiyimini o‘z nomi bilan ataydi, negaki, cho‘girmada millat arsenaliga oid qarashlar tizimi mavjud! She‘r ikkinchi bandida milliy libos hozirgi kunda mavjudligi, qoraqalpoq xalqi orasida “telpek”, “qurash” tarzida ham qo‘llanilayotganligini alohida ta‘kidlab o‘tadi²¹.

I.Yusupovning yuqorida tahlilga tortilgan she‘ri Shuhrat tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Tarjimada tarjimon qoraqalpoq tili fonetikasi va leksikasini hisobga olgan, she‘r matnini imkon qadar asliyatga yaqinlashtirishga harakat qilgan. Ikki nusxa muqoyasasi, ba‘zi o‘rinlarda uchraydigan fonetik o‘ziga xoslikni istisno qilganda, asliyat va tarjima o‘rtasida jiddiy tafovut kuzatilmaydi. Negaki, ikki til ham turkiy qardosh tillar oilasiga mansub, umumiy manzara bir-biriga mushtarak tamoyillarni hosil qiladi. Xususan, she‘r matnini boshqaradigan milliy libos o‘zbek tilida fonetik o‘zgarishga uchrab, “cho‘girma” ko‘rinishida qo‘llaniladi. Ikki matnda hamohang “sh” undoshi “ch” undoshi, “o” unli tovushi “o” tovushi, “e” tovushi “a” unlisi bilan berilishi fonetik qonuniyatni anglatadi.

Gulnur Azbergenovanning inglizcha tarjimasi shunday jaranglaydi:

“Our lifestyle is getting modern, so
Clothing changed a newer style, too
If I tell stories heard about you
The main head clothing of ancestors”

Tarjimada tarjimon cho‘girma atamasiga muqobil so‘z tanlamaydi, uni “The main head clothing of ancestors” tarzida “ota-bobolar bosh kiyimi” deya umumlashgan nom bilan ta‘riflaydi, ma‘noni saqlashga intiladi. O‘zbekcha va inglizcha tarjimalarni originalga solishtirganda, ikkala tilda ham badiiy mantiqqa urg‘u berilganligi ayonlashadi. Agar originaldagi aniqlik, mantiqiy izchillik o‘zbek tilida to‘g‘ri ifodalangan bo‘lsa, ingliz tilida esa jarayon o‘zgaruvi ko‘zga tashlanadi. Joriy holat asosiy omili ingliz tilining qoraqalpoq tilidan jiddiy

²¹ Юсупов И. Кеўилдеги кең дүнья. Қосықлар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1989. – Б. 32-33.

tafovutlanishi, har bir til o'ziga xos grammatika va leksika zaxirasiga bog'liqligi bilan tushuntiriladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tarjimonlar "Cho'girma" she'rida qo'llanilgan arxaizmlar, istorizmlarga xos qoraqalpoq milliy-maishiy leksikasi o'zbekcha va inglizcha tarjimasida alternativ so'z tanlash vositasida original matn tarixiylik tamoyillariga tayanganligini kuzatishimiz mumkin. Biroq joriy holatda milliy-maishiy leksikaga izoh berilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Shuningdek, faslda I.Yusupov, K.Karimov ijodi o'zbekcha va inglizcha tarjimasida qiyosiy talqin qilinib, tarjimonlar Salim Ashur, Omon Matjon, Yangiboy Qo'chqorov, Shuhrat tarjimachilik faoliyatidagi ijodiy izlanishlar tavsiflanadi.

"Badiiy tarjimada toponomik atamalarni transkripsiya va transliteratsiya usulida o'g'irish masalalari haqida" deya nomlanadigan uchinchi faslda hozirgi qoraqalpoq shoirlari ijodi o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida toponomik atamalarni o'g'irish jarayonida qo'llanilgan usullar haqida mushohada yuritiladi.

Har bir tarjima asar ikki milliy adabiyot bir-birini boyitib borishiga xizmat qiladi, shu bilan barobar, biri ikkinchisi tarixi, o'ziga xos milliy koloriti, milliy uslubi bilan aloqador yashash sharoiti, tili, e'tiqodi, madaniyati va urf-odatlarini bilan yaqindan tanishadi. Tarjima sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga nazar solsak, tarixiy voqelik, tarixiy shaxslar, jo'g'rofiy makon-yurt atamalari nomlarini badiiy talqin qilish murakkablik hosil etishiga guvoh bo'ldik. Shunday ekan, tarjimada bu usullar qanday vujudga keladi va ular qaysilardan iborat, degan haqli savol tug'iladi. Savolga javob axtarish mobaynida olim G'.Rahimovning "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kitobida shunday ma'lumotlarga duch keldik va ularni asl holicha keltirishni maqsadga muvofiq hisobladik: "Transkripsiya va transliteratsiya usuli. Transkripsiya usulida so'z talaffuz shakli, transliteratsiyada esa uning grafik formasi qayta ijodiy yaratiladi; aniqlashtirish usuli. Joriy holatda aniqlashtirish asl nusxadagi keng ma'noni tor ma'noda ifodalashni anglatadi; generalizatsiya (umumlashtirish – asliyatdagi tor ma'nodagi so'zni tarjimada keng umumlashtiruvchi boshqa bir so'z bilan almashtirish); modulyatsiya (original matndagi leksik birliklar ma'nosini badiiy tarjimada kuchaytirib berish usuli)"²².

Qoraqalpoq shoiri X.Dauletnazarovning "Aqshakól" she'ri Muzaffar Ahmad tomonidan o'zbek tiliga o'g'irilgan. Ijodkor adabiy talqinida qisqa kenglik tasviri ustuvor bo'lsa-da, bu she'rda joy nomlari aniqligi, mashhur shaxslar ismi faol qo'llaniladi. Joriy holatda shoir poetik suvrati aniq bir tadqiqot obyektiga yo'naltiriladi, badiiy umumlashma yorqinligi esa muallif pozitsiyasini belgilaydi:

Tarixing kuylasa ne-ne asrlar,
Sado bergay necha qo'rg'on-qasrlar,
Yozilib, aytilib ko'p taxmin-sirlar,
Ulug'lab, dong'ingni yoygan Oqchako'l!²³

She'r matnida tarjimon transkripsiya va transliteratsiya usulidan foydalangani ayon bo'ladi. Shoir bu usullarga individual-ijodiy tarzda yondashgan va Aqchako'l haqida o'y-xayollar jamlangan asar o'zbekcha variantini yaratgan. Tarjimon

²² Раҳимов Ф. Таржима назарияси ва амалиёти. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 129-132.

²³ www.ziyouz.uz. Холилла Давлатназаров

Aqchako‘l atamasi avvaldan mavjud bo‘lganligi, uning Qoraqalpog‘iston hududida joylashganligi, Qizilqum bilan bog‘liq o‘rinlar, Aqchaxon shahri, Bo‘ston shahri, Qoratau tog‘i, Ayazqal‘a joy nomlarini tarjimada aniq belgilagan, atamalarni lingvopoetik va lingvostilistik talqin qilish yordamida badiiy tarjima qilishga intilganligi ko‘zga tashlanadi. M.Ahmad Qizilqum atamasini o‘zbek tiliga o‘girganda fonetik va stilistik moslashuvchanlik tamoyiliga murojaat qilgani ma‘lum bo‘ladi. Aqchako‘l joylashgan o‘rnini aniq ko‘rsatish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi nomini aniq ko‘rsatadi va faktik ma‘lumotlar beradi. Tarixiylik tamoyilini rahbarlikka olgan tarjimon jo‘g‘rofiy hudud atamalarini oydinlashtiradi, Aqchako‘l qadimiy tarixiy ma‘lumotlarini puxta o‘rganadi, she‘riy tarjima matni ta‘sirchanligini oshiradi. Tarjimon shoir ifoda uslubini saqlashga harakat qiladi, toponomik atamalar tarjimasida transkripsiya usulidan foydalanishda faqat shakl muvofiqligi, fonetik xususiyatlar cheklanmaydi, tarixiy jo‘g‘rofiy hudud, toponimlar xususida imkon doirasida qiziqarli, ta‘sirchan tasvirda bayon qilishga harakat qiladi. Natija o‘laroq asliyat va tarjimada tarixiy kolorit quyushlab, qorishiq holda ruhiyat realizmini qayta tiklashga yo‘l ochadi.

Umuman, hozirgi qoraqalpoq shoirlari ijodini jahon va turkiy xalqlar tillariga o‘girish tarjimonlar oldiga kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi, ijodiy ifoda uslubiga hamohanglik, tarjimon poetik mahorati, tarjima malakasini to‘liq o‘zlashtirish milliy adabiyotni jahon madaniyatiga bog‘laydi. Shu nuqtada, ijodkor-shoir va ijodkor-tarjimon hamkorligi muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, ta‘kidlash joiz, hozirgi qoraqalpoq shoirlari ijodini ingliz va o‘zbek tillariga o‘girishda tarjimon poetik mahoratiga bag‘ishlangan dissertatsiyada olib borilgan tadqiqot natijalari hamda yakunlari bo‘yicha kelingan ilmiy-nazariy xulosalar quyidagi ravishda umumlashtiriladi:

1. XXI asr global munosabatlar keskinlashayotgan sharoitda axborot hajmi kengayishi, turli-tuman xalq va davlatlararo madaniy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar kuchayishi tarjima san‘atiga ehtiyojni yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, qoraqalpoq ijodkorlari asarlarini dunyo hamda Sharq xalqlari tillariga badiiy tarjimasi milliy adabiyot jahon hamjamiyatiga tanilishi va ommalashuviga zamin hozirlaydi. Binobarin, hozirgi qoraqalpoq shoirlari ijodi shu paytgacha rus va turkiy tillarga o‘girilgan, biroq xorijiy tillar, shu jumladan, inglizchaga tarjima qilinmagan edi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan mavzu yangilik hosil etadi.

2. Jamiyat, madaniyat va adabiyot ma‘naviy takomilida badiiy tarjima salmoqli o‘rin tutadi, shu boisdan, azal-azaldan badiiy tarjima malakasi adabiyotshunoslar, tilshunoslar hamda psixologlar e‘tiborini o‘ziga jalb qilgan. “Tarjima” istilohi bir tilda mavjud muayyan matnni ikkinchi tilda qayta tiklash, yangicha badiiy nutq atmosferasida takroran yaratish jarayonini ham tavsiflaydi.

3. Turli-tuman millatlar madaniy hamkorligi, adabiy aloqalari vositasi sifatida tarjima asoslari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Manbalarga muvofiq, “Dragomonlar” deya ta‘riflanadigan ibtidoiy tarjimonlar faoliyati eramizgacha uch

ming yillar avval qadimiy Misrda vujudga kelgani, misrliklar va nubiyaliklar o'rtasida o'zaro munosabat rishtalarini o'rnatishga xizmat qilgani ayonlashadi.

4. Turkiy adabiyotshunoslikda badiiy tarjima masalasi badiiylik mezonlari asnosida muayyan ilmiy yo'nalishlarda tadqiq qilinadi, vaholanki, qoraqalpoq estetikasida badiiy tarjima muammosini o'rganish hanuz-hanuzgacha izchil yo'lga qo'yilmaganligini ta'kidlash joiz. Ba'zi ilmiy asarlar yoki maqola-tezislarni hisobga olmaganda, boshqa xalqlar adabiyotidan qoraqalpoqchaga badiiy tarjima qilish san'ati nazariy sathlarida ilmiy bo'shliqlar mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

5. Tadqiqot mobaynida metaforani tarjima qilish jarayoniga bir qator yondashuvlar uchrashi olimlar ilmiy asarlari asosida dalolatlandi. Shu ma'noda, matnni o'zbek va ingliz tillariga o'girish uslubiyatini bir-biriga muqoyasa qilganimizda, ularda tarjimon muqobil so'z tanlovi, variativ moslashuvchanlik, transformatsiya, kalkalash strategiyalaridan samarali qo'llanilganligi kuzatiladi.

6. Zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida muqoyasasida bir tildan ikkinchi tilga o'girish tajribasida qardosh xalqlar tili, e'tiqodi, madaniyati va adabiyoti mushtarakligi badiiy tarjima jarayonida muqobil so'z tanlash inglizchaga nisbatan oson ekanligi ma'lum bo'ladi. Biroq shunga qaramasdan, har bir xalq milliy koloritini belgilaydigan leksikani ingliz tiliga o'girishda alternativ yoxud ekvivalent so'zlar qo'llash muhim ahamiyat kasb etishi matn tarjimasida ba'zi namunalar vositasida mantiqiy jihatdan dalolatlandi.

7. Hozirgi qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida qiyoslanganda, ularda qahramon obrazi va badiiy mohiyatni qayta tiklashda har bir tarjimon individual mahoratidan kelib chiqqan holda muallif ifoda uslubini saqlashga intilishini ko'rish mumkin. Joriy holat dissertatsiyada I.Yusupov hamda S.Ibragimov poetik asarlari tarjimasida misolida nazariy umumlashtiriladi.

8. Hozirgi qoraqalpoq shoirlari asarlarini o'zbekchaga o'girishda asliyat o'ziga xos tarixiy va milliy davr koloritini aks ettirishda, asosan, tarixiylik tamoyiliga tayanilgan, zamonaviy andozalarga mos ifoda tanlangan, til fonetik qonuniyatlari hisobga olingan. O'zbek-qoraqalpoq tillari leksik, grammatik, fonetik mushtarakligi tarjimonga adekvat tarjima qilish uchun qulaylik tug'diradi.

9. Zamonaviy qoraqalpoq shoirlari asarlari o'zbekcha va inglizcha badiiy tarjimasida muqoyasasida ingliz tiliga o'girishda muvaffaqiyatlar barobarida ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi, xususan, o'rinsiz, asliyatga mos kelmaydigan jumlar qo'llash, asosiy tushunchalarni tushirib qoldirish, ifodada uslubiy g'alizlik belgilari mavjudligi masala mohiyatini yanada oydinlashtiradi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

СЕЙТНИЯЗОВА ГУЛЖАХАН МЫРЗАГАЛИЕВНА

**ПЕРЕВОДЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ
ПЕРЕВОДАХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СОВРЕМЕННЫХ
КАРАКАЛПАКСКИХ ПОЭТОВ НА УЗБЕКСКИЙ И АНГЛИЙСКИЙ
ЯЗЫКИ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение (филологические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/Fil2984.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.karsu.uz), и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Гайлиева Огулбай Курбанмурадовна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты:

Казахбаев Сарсен Сеилбекович
доктор филологических наук (DSc), доцент

Абидова Рохатой Худайбергеновна
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент

Ведущая организация:

**Университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 по присуждению учёных степеней при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, город Нукус, улица Ч.Абдирова, дом 1. Тел: (99861) 223-59-25; факс: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за № _____). Адрес: 230112, город Нукус, улица Ч. Абдирова, дом 1. Тел: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года.
(Протокол реестра рассылки за № _____ от «_____» _____ 2025 года).

К.К.Оразымбетов

председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

Ж.О.Танирбергенов

ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам, доцент

З.У.Бекбергенова

председатель научного семинара при разового Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация доктора философских наук (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В теории и эстетике мирового литературоведения всегда уделялось серьезное внимание художественному переводу, теории и практике перевода, посреднической роли и функциональному значению художественного перевода в контексте литературных связей. Следовательно, определение методов и приемов художественного перевода, установление степени практической разработанности проблемы, изучение поэтического мастерства автора и стиля выражения переводчика в сложной взаимосвязи имеют актуальное научно-практическое значение. Кроме того, принципы художественного перевода, оценка способности переводчика в процессе воссоздания оригинального произведения на втором языке, комплексное изучение его оригинального подхода к тексту также в определенной степени формируют научные потребности.

В мировой литературе культура, история, традиции, образ жизни и ценности каждого народа находят своё отражение посредством художественных произведений, где национальные особенности и универсальная сущность реализуются благодаря опыту перевода и литературных связей. Межъязыковое генетическое и контактное сотрудничество укрепляет развитие художественной системы, тогда как литературный перевод, как особая форма литературных связей, выносит взаимную заинтересованность на повестку дня. Художественный перевод считается высоким видом искусства, предоставляющим читателю возможность читать текст на родном языке. Успех перевода произведения зависит от поэтического мастерства переводчика, который переносит целостный художественный стиль в сознание и воображение читателя, учитывая сложность творческого процесса.

В период национальной независимости в нашей стране отношение к науке, культуре и искусству было коренным образом обновлено, и благодаря последовательным реформам, проводимым для формирования и укрепления навыков чтения, практически поднятых на уровень государственной политики, идейное направление, тематическое содержание и философско-интеллектуальный потенциал художественной литературы перешли на новый уровень. В условиях глобального напряжения в мировом сообществе «перед нами стоит важнейшая задача – вывести работу по популяризации чтения и укреплению любви молодёжи к книгам, а также их духовного иммунитета на новый этап»¹. Эта задача подчёркивает общественную значимость художественной литературы, включая искусство перевода, в системе ценностей. Кроме того, признание культурного сотрудничества между литературами как фактора прогресса, а также определение роли художественного перевода в обеспечении общности национальных литератур, совершенствование творческого влияния и типологической

¹ Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 47.

системы положительно влияют на научно-исследовательскую деятельность в данном направлении.

Сегодня реформирование перевода художественных произведений в соответствии с современными стандартами, учёт его уникальных особенностей, восстановление оригинального текста на другом языке с участием квалифицированных специалистов и интеграция этого процесса в контекст тюркоязычной и мировой художественной системы имеют научно-практическое значение. При этом культурно-просветительские и социально-экономические связи между братскими народами укрепляют взаимное доверие и дружественные отношения, и таким образом, комплекс литературных связей, важным звеном которого является художественный перевод, изучение мастерства переводчиков и принципов перевода с других языков в сравнительно-историческом аспекте, способствует определению перспективных направлений литературоведения.

Указы Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 6 сентября 2019 года № РР-5812 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования», от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», а также Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 17 февраля 2017 года № УП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательских работ», от 12 мая 2018 года № УП-3721 «Об организации среди молодежи конкурсов любителей книги в целях широкого изучения и пропаганды творческого наследия наших великих ученых, поэтов и мыслителей», от 11 июля 2019 года № УП-4391 «О мерах по внедрению новых принципов управления в систему высшего и среднего специального образования», от 6 ноября 2020 года № УП-4884 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», от 10 декабря 2012 года № УП-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков», от 20 апреля 2017 года № УП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», а также от 19 мая 2021 года № УП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» и другие нормативно-правовые акты, регулирующие данную сферу, служат определенной основой для реализации поставленных задач.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации для

информационного общества и демократического государства в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии».

Степень изученности проблемы. В мировой и тюркской литературоведческой науке накоплен богатый научно-исследовательский опыт в области художественного перевода, особенно в аспектах истории и теории перевода, его роли в совершенствовании национальной культуры, поэтического мастерства переводчика, эстетических принципов, применимых в межъязыковом переводе, особенностей искусства перевода, проблем воссоздания оригинального текста на других языках и других научных аспектах².

